

ULUG'BEK HAMDAMNING "SABO VA SAMANDAR" ROMANIDAGI OBRAZLAR TALQINI.

Masharipova Asalxon Shuhrat qizi

Urganch Ranch texnologiya universiteti 2- kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanidagi obrazlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, romanda hayot va muhabbat bilan bog'liq kurashlar, insonning ichki dunyosidagi turli tuyg'ulari she'r va nasrda uyg'unlashganiga guvoh bo'lasiz.

Kalit so'zlar: obraz, aspekt, konflikt, stereotip, idealizm.

Annotation: This article analyzes the unique characteristics of the characters in Ulugbek Hamdam's novel "Sabo and Samandar". You will also see that the novel combines the struggles of life and love, as well as various feelings in the inner world of a person, in poetry and prose.

Keywords: image, aspect, conflict, stereotype, idealism.

Аннотация: В данной статье проанализированы характеристики героев романа Улугбека Хамдама "Сабо и Самандар". Также в романе вы станете свидетелями того, как в поэзии и прозе сочетаются борьбы, связанные с жизнью и любовью, различные чувства во внутреннем мире человека.

Ключевые слова: образ, аспект, конфликт, стереотип, идеализм.

XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon bo'limi mudiri bo'lib, faoliyat yuritib kelayotgan taniqli yozuvchi va tarjimon Ulug'bek Hamdamdir. Bugungi kunda ijodkor yaratgan nasriy va ilmiy asarlarida majoziy tasvir yetakchilik qiladi. Katta hayotiy haqiqat tasviri, insonning qalb kechinmalari turli xil tovlanishlarda badiiy aks ettirilgan. Ilmiy-badiiy uyg'unlik yaratgan realistik asarlarda, qissalarida o'z ifodasini topgan. Kitobxonlar tomonidan ijobiy kutib olingan "Sabo va Samandar" romanida ma'rifiy-falsafiy mantiq yetakchilik qilishini ko'rish mumkin. Yozuvchi bu asarida bizning hozirgi zamonaviy dunyodagi ba'zi insonlar tan olishi yoki tan olmasligi, nazarga ilmaydigan, borgan sari odamlar orasida kamnamo bo'lib borayotgan, insoniyat yaratilgandan buyon, bugungi kunigacha xamrohi bo'lib kelayotgan nozik tuyg'u - muhabbat haqida so'z yuritadi. Asarda hikoya qilinuvchi qahramonlar Sabo va Samandardir.

Sabo - go'zal, aqlli, o'zining orzulariga maqsadlariga sodiq qolgan, xarakteri mustahkam, o'z qadriyatlarini topishga intilgan ayol obrazidir.

Samandar - kuchli, ba'zan mo'rt, hissiy ichki izlanishlari, hayotga bo'lgan qarashlari, maqsadlari bilan ajralib turadigan yigit obrazida tasvirlanadi.

Sevgi va muhabbatga bo'lgan qarashlari, bir-birlariga bo'lgan hurmat va mehr-e'tiborlari ularni hayotdagi asosiy maqsadlarini topishda ko'maklashadi.

“Sabo va Samandar shu kuni bir birlariga muhabbat izhor qilishgan edi. Yo‘q... ular buni ochiq ravshan aytishmadi, el qatori “ Men seni sevaman ” deyishmadi. Ammo... ammo ishqning ular aytgandan balandroq izhori bo‘lishini men shu tobda tasavvur ham qilolmay turibman” [21:112]

Romanda sevgi nafaqat, baxt shu bilan birga alam, iztirob va kurash ekanligi betakror yoritib berilgan. Bu asar hozirgi yoshlarning sevgi haqidagi stereotiplarni ifodalaydi. Insonlardagi idealizm va tasavvurni tahlil qilib ,o‘zgarish va yangilanishni ko‘rsatib beradi. Asarning ahamiyatli jihatlaridan biri zamonaviy oqimning o‘zbek adabiyotidagi yangi yo‘nalishlarini aks ettirishidir.

Romanning eng muhim aspekti bu sevgi va sadoqatdir. Qahramonlarning ichki kechinmalari, his tuyg‘ulari fasllar kabi o‘zgarib, yangilanib boradi. Romanda ikki yoshning ilojsiz qolishi ijtimoiy nohaqlik, aqidaparastlarcha johillik bilan tasvirlanadi. Oshiq-ma’shuqning aql-hushdan begonalashuvi sof orzu-umidlari oyoqosti qilinishi, yashash ilinji so‘nishi bilan bog‘liq. Darhaqiqat, umidsiz ishq og‘ushiga tushgan ikki dil na hayot quvonchlari, na shirin jon tashvishini qilishadi. Demak, yozuvchi xarakterlararo konfliktni yetakchi qahramonlar dardi-dunyosiga tamomila qarama-qarshi bo‘lgan olam bilan ziddiyat, ya’ni ijtimoiy konflikt darajasiga ko‘tara oladi.

“Kishi o‘ziyu dardi bilan qanchalik mashg‘ul bo‘lsa, dunyodan va uning nayranglaridan shunchalik g‘ofil bo‘ladi. Sabo va Samandarga ularning sevgisiga xamla ilinjida yirtqich hayvondek sezdirmay, pisib kelayotgan xavfni na yigit, na qiz payqardi shu tobda. Ko‘zlari bir-birini ko‘rar bir-birlarining pinjiga suqilib , begona atrofning mudxish sariqligidan panox topardilar” [30:140]

“Muhabbatning ko‘zlari ko‘r bo‘ladi” degani balki shudir.

Chin dildan sevgan insonga hech kim hech nima ko‘rinmay qoladi. Oshiq insonning hayotda ma‘nosi bo‘ladi, u boshqa ma‘no izlamaydi. Kim(lar)dir aytishi mumkin , faqat Allohni sevinglar deb. Lekin har holda Alloh Momo Havoni faqat ko‘payish uchun yaratmagandir. Ilohiylik tuyg‘usi inson va inson o‘rtasidagi sevgida ham bordir. Hamma narsada me‘yor bo‘lishi kerak, shu qatorda sevgi-muhabbatda ham. Haddan tashqari sevgi his tuyg‘ular insonni tamom qiladi, yeb bitiradi. Hattoki telba qilib qo‘yadi , sevgi - shu daraja kuchli hissiyot me‘yoridan ortig‘i zarar! Lekin, bitta gap bor-ku ko‘ngilga buyruq berib bo‘lmaydi sevgiga, muhabbatga o‘lchovni oshiq qo‘ymaydi. Balki, sevgi shu tomonlari bilan yurakka yaqindur, balki sevgisiz hayot yo‘qdir. Muhabbat odamlar va narsalar mohiyatini bilib olish uchun aqlga yo‘l ochadi, ezgulikni yovuzlikdan, rostni yolg‘ondan farqlash me‘zoni namoyon bo‘ladi. Muhabbat odamlarni, xalqlarni, millatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Muhabbat bor joyda murakkab, qiyin muammolar ham osonlikcha hal bo‘ladi, hatto urushlarga, janjallarga o‘rin qolmaydi .

Xulosa qilib aytganda, Ulug'bek Hamdam bu asar orqali insonning intilishlarini, ichki kurashlarini, maqsadlarini izlash jarayonini yoritib bergan. "Sabo va Samandar" asari insonga o'zligini anglashda, orzularini hayotdagi o'rnini, ichki dunyosini topishda ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U.Hamdam.Sabo va Samandar .T., Sharq.2007
2. Ulug'bek Hamdam, Sabo va Samandar.-Toshkent.O'zbekiston.2011
3. I.Yoqubov. Mustaqillik davri o'zbek romanlari poetikasi . Toshkent .;'' Nurafshon business''.2021.
4. Hamdam Ulug'bek. Sabo va SamandarT.; Sharq nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2007.